

Oriental Journal of Education



THE GROWING TREND OF CRIMES COMMITTED USING TRANSPORT VEHICLES

Alisher Ismailov

Applicant at the University of Public Security
Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Safe city, Safe way, Interpol, car attacks, logistics.

Received: 15.02.26

Accepted: 16.02.26

Published: 17.02.26

Abstract: At present, means of transport have become an integral component of global societal life. Their widespread use and technological advancement have also created new opportunities for criminal activity. This article provides a scientific analysis of crimes committed using transport vehicles, highlighting not only the steady increase in their number but also the ongoing trend toward greater complexity and sophistication of such crimes.

TRANSPORT VOSITALARIDAN FOYDALANIB SODIR ETILAYOTGAN
JINOYATLARNING OSHIB BORISH TENDENSIYASI**Alisher Ismailov**

Tadqiqodchisi
Jamoat xavfsizlik universiteti
Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Xavfsiz shahar, Xavfsiz yo'l, Interpol, avtomobil hujumlari, logistika.

Annotatsiya: Hozirgi kunda transport vositalari global jamiyat hayotining ajralmas tarkibiy qismiga aylangan. Ularning keng tarqalishi va texnologik jihatdan rivojlanishi jinoyatchilik faoliyati uchun ham yangi imkoniyatlarni yuzaga keltirmoqda. Mazkur maqolada transport vositalaridan foydalangan holda sodir etilayotgan jinoyatlar ilmiy jihatdan tahlil qilinib, nafaqat ularning son jihatidan ortib borishi, balki murakkablashuvi va takomillashuvi tendensiyalari ham yoritib berilgan.

ТЕНДЕНЦИЯ РОСТА ПРЕСТУПЛЕНИЙ, СОВЕРШАЕМЫХ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ
ТРАНСПОРТНЫХ СРЕДСТВ**Алишер Исмаилов**

Соискатель Университета общественной безопасности

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Безопасный город, Безопасная дорога, Интерпол, атака на машине, логистика.

Аннотация: В современных условиях транспортные средства стали неотъемлемой составляющей жизни глобального общества. Их широкое распространение и технологическое развитие способствуют возникновению новых возможностей для преступной деятельности. В статье с научной точки зрения анализируются преступления, совершаемые с использованием транспортных средств, при этом особое внимание уделяется не только росту их количества, но и тенденции к усложнению и совершенствованию данных преступлений.

Kirish. O‘zbekiston Respublikasida “Xavfsiz shahar”, “Xavfsiz yo‘l” konsepsiyalari doirasida transport oqimini nazorat qilish va huquqbuzarliklarning oldini olish bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Shunga qaramay, jinoyatchilarning transport vositalaridan foydalanish usullari doimiy ravishda takomillashib borayotgani ushbu sohada tizimli izlanishlar olib borishga bo‘lgan ehtiyojni oshirmoqda.

Zamonaviy jinoyatchilik globallashuv va yuqori texnologik taraqqiyot sharoitida tubdan o‘zgarib bormoqda. Ayniqsa transport vositalarining jamiyat hayotining ajralmas qismiga aylanib borayotgani, nafaqat iqtisodiy o‘rishga, balki jinoyatchilikning yangi va xavfli ko‘rinishlari shakllanishiga ham zamin yaratmoqda. Transport vositasi endilikda faqatgina texnik harakatlanish vositasi emas, balki jinoyat sodir etish, uni yashirish, tezkor qochish va transmilliy miqyosda amalga oshirish imkonini beruvchi asosiy vositaga aylandi. Kriminologik nuqtayi nazardan qaralganda, transport vositalari jinoyatda bir vaqtning o‘zida qurol, vosita va ayrim holatlarda bevosita jinoyat obyekti sifatida ham namoyon bo‘lmoqda.

Muhokama va natijalar. Transport vositalaridan foydalanishning eng muhim xususiyatlaridan biri bu uning yuqori darajadagi mobilligi hisoblanadi. Zamonaviy avtomobil, temiryo‘l, aviatsiya va logistika infratuzilmasi jinoyatchilarga hududiy chegaralarni deyarli ahamiyatsiz holga keltirish imkonini bermoqda. Transmilliy uyushgan jinoyatchilikning, ayniqsa giyohvand moddalar savdosi, terrorizm va odam savdosining logistik zanjiri bevosita transport vositalari bilan bog‘liq. Jinoyatchilarni qidirish tahlillari shuni ko‘rsatadiki, uyushgan jinoiy guruhlar o‘z harakatlarini shunday rejalashtirmoqdaki, jinoyat bir ma‘muriy hududda sodir etib, bir necha yuz kilometr uzoqlikdagi boshqa hududda yashirilib qolish yoki jinoyat izlarini yo‘qotish taktikasini keng qo‘llamoqda. Bu esa huquqni muhofaza qiluvchi organlar uchun jinoyatchini aniqlash, ta‘qib qilish va javobgarlikka tortishni sezilarli darajada murakkablashtirmoqda. qolmasdan, nafaqat an‘anaviy qidiruv usullarini,

balki yuqori texnologik va tahliliy kompetensiyalarni ham talab etadi. So‘nggi yillarda dunyoda transport vositalaridan terrorchilik xurujlarida jinoyat quroli sifatida foydalanish kabi yangi tendensiyalar kuzatilmoqda.

Transport vositalarining jinoyatchilikda faol qo‘llanishiga olib kelayotgan muhim omillardan biri anonimlik darajasining oshganidir. Qisqa muddatli ijara xizmatlari, onlayn ro‘yxatdan o‘tish tizimlari jinoyatchilarga o‘z shaxsini yashirgan holda transportdan foydalanish imkonini bermoqda. Soxta hujjatlar, uchinchi shaxslar nomiga ochilgan akkauntlar orqali avtomobillarni ijaraga olish amaliyoti keng tarqalgan. Natijada transport vositasi jinoyatchining shaxsi bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘lanmaydi, bu esa jinoyatni fosh etish jarayonini murakkablashtiradi.

Jinoyatchilikda transportdan foydalanishning yana bir muhim jihati bu logistika jarayonlarining niqoblanishidir. Giyohvand moddalar, qurol-yarog‘, kontrafakt mahsulotlar va noqonuniy moliyaviy resurslar ko‘pincha qonuniy logistika va kuryerlik faoliyati ortiga yashirilgan holda tashilmoqda. Mashhur yetkazib berish kompaniyalari logotiplari tushirilgan yuk mashinalari huquqni muhofaza qiluvchi organlar e‘tiborini kamroq tortishi sababli jinoyatchilar uchun qulay vositaga aylanmoqda. Uyushgan jinoyatchilik guruhlarini transport tizimidan maksimal darajada foydalangan holda hududiy va global nazoratni amalga oshiradi. Logistika tarmoqlarining strategik joylashuvi jinoyatchilik guruhlariga o‘z mahsulotlarini tezkor yetkazib berish, xavfsizlikni ta‘minlash va global raqobatni boshqarish imkonini beradi. Shu bilan birga, transport tizimi orqali uyushgan jinoyatchilik moliyaviy nazorat, soliqdan qochish va bojxona tartiblarini chetlab o‘tishni ham amalga oshiradi. Bu holat jinoyatchilikda ommalashgan ko‘rinish kasb etayotganini ko‘rsatadi.

So‘nggi o‘n yilliklarda global jinoyatchilik manzarasi sezilarli o‘zgarishlarga uchramoqda. Giyohvand moddalar savdosi, odam savdosi, qalbaki mahsulotlar va kiberjinoyatchilik o‘zaro bog‘liq tarmoqlarni tashkil etmoqda. Xususan, giyohvand moddalar savdosi global jinoyatchilikning eng daromadli va strategik sektori hisoblanadi. BMTning Giyohvand Moddalar va Jinoyatchilik bo‘yicha boshqarmasi (UNODC) ma‘lumotlariga ko‘ra, 2023-yilda dunyoda taxminan 316 million kishi giyohvand moddalar iste‘mol qilgan va bu ko‘rsatkich o‘tgan o‘n yillikda 28% ga oshgan. An‘anaviy logistika – yuk mashinalari, kemalar, konteynerlar va havo transporti – narkotiklar, qurol-yarog‘ va qalbaki mahsulotlarni global bozorga yetkazishda asosiy vosita hisoblanadi.

Statistik ma‘lumotlar transport vositalari bilan bog‘liq jinoyatchilikning global miqyosda jiddiy muammo ekanini tasdiqlaydi. Interpol va UNODC ma‘lumotlariga ko‘ra, dunyoda har yili o‘rtacha 7 milliondan ortiq avtotransport vositasi o‘g‘irlanadi. O‘g‘irlangan premium-klass avtomobillarning G‘arbiy Yevropa va Kanadadan G‘arbiy Afrika hamda Markaziy Osiyo bozorlariga noqonuniy olib chiqilishi bunga yaqqol misoldir. Interpolning “Noqonuniy egallangan transport vositasi” bazasida millionlab qaydlar mavjud bo‘lib, bu transport jinoyatchiligining naqadar keng qamrovli ekanini ko‘rsatadi.

AQSh bo‘ylab 2020-yildan 2023-yilgacha avtomobil o‘g‘irlash holatlari ko‘paygan. 2018-yildan 2022-yilgacha avtomobil o‘g‘irlashlarning aksariyati o‘qotar qurol bilan sodir bo‘lgan va taxminan to‘rt dan bir qismi (28%) jabrlanuvchilarning jarohatlanishiga, jumladan, o‘limga olib kelgan.

Buyuk britaniya Milliy statistika boshqarmasi ma’lumotlariga ko‘ra, o‘g‘irlangan transport vositalari soni so‘nggi 10 yil ichida 74% ga oshgan. 2025-yil 31-martda jami 121 825 ta transport vositasi o‘g‘irlangan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2015-yilda 70 216 tani tashkil etgan.

Kriminolistik tahlil shuni ko‘rsatadiki, jinoyatchilarning transport vositalariga qiziqishining oshishiga ko‘plab sabablar keltirishimiz mumkin. Iqtisodiy jihatdan qaralganda, o‘g‘irlangan avtomobil ehtiyot qismlarga ajratilganda o‘z qiymatidan bir necha barobar ko‘proq daromad keltirishi mumkin. Texnologik rivojlanish esa jinoyatchilar uchun yangi imkoniyatlar ochmoqda. Avtomobillarda turli elektron tizimlar orasida ma’lumot uzatish uchun ishlatiladigan raqamli tarmoqlar va kalitsiz avtomobilni o‘t oldirish, ochish va yoqish kabi tizimlar kiberjinoyatchilik elementlarini avtomobil o‘g‘riligiga olib kirdi. Endilikda mexanik qulfni buzish emas, balki signalni tutib olish yoki elektron boshqaruv blokiga aralashish yetarli bo‘lmoqda.

Transport vositalaridan qurol sifatida foydalanish so‘nggi o‘n yillikda alohida jinoyat hodisasi sifatida shakllandi. Ushbu jinoyatlarning asosiy xususiyati shundaki, ular past texnologiyali bo‘lishiga qaramay, juda yuqori darajadagi talafot keltiradi. O‘qotar qurol yoki portlovchi moddalarni qo‘lga kiritish murakkab bo‘lgan sharoitda yuk avtomobilini ijaraga olish deyarli hech qanday shubha uyg‘otmaydi. Og‘ir yuk mashinalarining katta kinetik energiyasi himoya to‘siqlarini ham yengib o‘tishga imkon beradi.

Maryland universitetining “Global terrorizm ma’lumotlar bazasi”ga ko‘ra,

1970–2020 yillar oralig‘ida 288 ta avtomobil bilan bog‘liq terrorchilik hodisasi qayd etilgan.

2014-yilda “Iroq Shom Islom Davlati” (ISHID) vakili Abu Muhammad al Adnoniy tarafdorlarini avtomobillardan qurol sifatida foydalanishga chaqirdi.

2016-yildagi Nitsa (Fransiya) hujumi esa burilish nuqtasiga aylandi: 86 kishi halok bo‘ldi, 458 kishi jarohatlandi. Shundan so‘ng 2017-yilda Londonda, Stokgolmda, Barselonada va Nyu Yorkda bir qator shunga o‘xshash hujumlar sodir bo‘ldi. Keyinchalik “ISHID” xalqaro terror tarmog‘ining zaiflashuvi bilan bu hujumlar kamaydi. Ammo so‘nggi hujumlar, avtomobil bilan amalga oshiriladigan terrorchilik harakatlari hanuz dolzarb ekanini ko‘rsatmoqda. Jumladan:

2024-yil 20-dekabr, Germaniyaning Magdeburg shahrida 50 yoshli Saudiya fuqarosi Taleb Jawad Al Abdulmohsan ijaraga olingan BMW X3 avtomobilini mahalliy bozordagi odamlar ustiga haydab kirdi. U politsiya tomonidan favqulodda chiqish yo‘li sifatida belgilangan yo‘ldan foydalanib, 400 metr masofada olomon ichidan o‘tib ketdi. Natijada 6 kishi halok bo‘ldi, 299 kishi jarohatlandi;

2025-yil 1-yanvar, AQShning Luiziana shtati, Nyu-Orlean shahrida Texasdan bo'lgan AQSh armiyasi faxriysi Shamsud Din Jabbar ijaraga olingan yengil avtomobilida, Yangi yilni nishonlayotgan odamlar ustiga bostirib kirdi.

400 metr yurgach avtomobildan tushib odamlarga qarata quroldan o'q otishni boshlagan. Natijada 14 kishi halok bo'ldi, 35 kishi jarohatlandi;

2025-yil 13-fevral, Myunxen (Germaniya) shahrida afg'onistonlik 24 yoshli Farhad Noori ijaraga olgan avtotransport vositasini kasaba uyushmasi namoyishi qatnashchilari ustiga haydab kirdi. Natijada ikki kishi (ona va uning ikki yoshli qizi) halok bo'ldi, 37 kishi jarohatlandi.

2025-yil 27-fevral, Isroilda 53 yoshli falastinlik haydovchi boshqarib kelayotgan transport vositasini avtobus bekatida turgan odamlar ustiga haydab 13 kishini jarohatladi.

2025-yil 3-mart, Germaniyaning Manheim shahrida ruhiy muammolari bo'lgan 40 yoshli nemis fuqarosi odamlar ustiga mashina haydab, 2 kishini o'ldirdi va 11 kishini jarohatladi.

2014 yildan 2025 yil martigacha bo'lgan davrda ekstremistlar tomonidan G'arb mamlakatlarida 18 ta terrorchilik avtomobil hujumlari sodir bo'lgan.

Avtomobil hujumlarining qulaylik tomonlaridan biri - bu jinoyatchilardan yuqori malakali haydovchilik tajribasini talab etmasligi va transport vositasini osonlikcha qo'lga kiritish (o'g'irlash, ijaraga olish yoki shaxsiy mashinadan foydalanish) imkoniyatining yuqoriligidir. Bu hujumlar tezligining yuqoriligi va talofatlarning kattaligi sababli jamiyatga kuchli ruhiy zarba beradi.

Pandemiyadan keyin piyodalar hududlari va ochiq osmon ostidagi tadbirlar ko'paygani hujumchilar uchun nishonlar sonini yanada oshirdi. Tadqiqotiga ko'ra, 2012–2022 yillarda G'arbda ommaviy talafotli hujumlarda avtomobil bilan hujum qilish ommaviy otishmalardan keyin ikkinchi o'rinda baholangan.

Shuningdek, elektrosamokat va skuterlarning keng tarqalishi anonim jinoyatchilikni kuchaytirdi. Davlat raqam belgilarining yo'qligi, tor ko'chalarda erkin harakatlanish imkoniyati bu vositalarni tezkor talonchilik uchun qulay qilmoqda. Yevropaning yirik shaharlarida bunday jinoyatlar kriminogen vaziyatni sezilarli darajada og'irlashtirayotgani kuzatilmoqda.

Transport vositalari bilan bog'liq jinoyatchilikni tahlil qilishda faqat miqdoriy ko'rsatkichlarga tayanish yetarli emas. Jinoyatchilik koeffitsiyenti, jinoyat tarkibining sifat jihatdan o'zgarishiga va huquqni himoya qiluvchi organlar tomonidan rasmiy ravishda aniqlanmay, yashirin qolayotgan jinoyatlar darajasiga ham alohida e'tibor qaratishni talab etadi.

Xulosa o'rnida shini ta'kidlab o'tish joizki, iqtisodiy omillar, texnologik rivojlanish, xalqaro transport koridorlarining kengayishi jinoyatchilikda transport vositalaridan foydalanishning yangicha usul va uslublarni qo'llagan holda, jinoyatchilikning oshib borishiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Kelgusida elektromobillar ulushi keskin oshishini hisobga olgan holda, kiberjinoyatchilikning transport sohasidagi ulushi ham ortish ehtimoli yuqori. Shu bois, jinoyatchilikda transport vositalaridan

foydalanish doimiy evolyutsiyada ekanini inobatga olib, huquqni muhofaza qilish organlari an'anaviy patrullik bilan cheklanib qolmasdan, talofatlarni minimallashtirish tamoyillariga asoslangan transport vositalarini to'xtatib qolish va jinoyatchilarni qo'lga olish tizimini rivojlantirish zaruriyati mavjud.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.
2. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksi
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 7 maydagi "Xavfsiz shahar loyihasini amalga oshirish bo'yicha bosqichma-bosqich chora tadbirlar va yagona texnologik yondoshuvni tashkil qilish to'g'risida"gi 343-son qarori. <http://www.lex.uz>
4. Xavfsiz yo'l milliy dasturi. <https://www.yhxx.uz/or/news/xavfsiz-yo'l-milliy-dasturi>.
5. See UNODC, World Drug Report 2025, Key findings, <https://www.unodc.org/documents/data-and-analysis/WDR> 2025
6. UNODC, World Drug Report 2025, Key findings, p. 66, https://www.unodc.org/documents/data-and-analysis/WDR_2025/WDR25_B1_Key_findings.pdf.
7. Maria Khoruk, Smoke and mirrors: Afghanistan's illicit drug economy after the opium ban, GI-TOC, 2025, <https://globalinitiative.net/analysis/afghanistans-illicit-drug-economy-after-the-opium-ban>.
8. Cyber Management Alliance, Major cybersecurity challenges in the age of IoT, February 2025, <https://www.cm-alliance.com/cybersecurity-blog/major-cybersecurity-challenges-in-the-age-of>.
9. UNODC, How effective firearms control can reduce violence and promote peace, UNODC, 2025, <https://www.unodc.org/unodc/firearms-protocol/news/2025/how-effective-firearms-control-can-reduce-violence-and-promote-peace>.
10. Center for Preventive Action, Conflict in the Democratic Republic of Congo, June 2025, <https://www.cfr.org/global-conflict-tracker/conflict/violence-democratic-republic-congo>.